

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ SHAXSLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOY HAMKORLIK MODELLARI

*Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti
3-bosqich talabasi **Shodiyeva Gulchiroy**
Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti
tyutori **Jalolova Yulduz***

Annotatsiya: Ushbu maqolada intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan va alohida yordamga muhtoj shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishning muhim bosqichi bo'lgan kasbiy malakalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida maxsus ta'lim muassasalari, oila va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning samarali modellari tahlil qilingan. Shuningdek, alohida ehtiyojli shaxslarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va ularni mustaqil hayotga tayyorlashda davlat va nodavlat tashkilotlarining o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Muallif tomonidan kasbiy ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, kompensatsiya, kasbiy ko'nikma, ijtimoiy hamkorlik, intellektual imkoniyati cheklangan shaxslar, korreksion pedagogika, ijtimoiy adaptatsiya, mehnat rehabilitatsiyasi.

Abstract: This article discusses the issues of forming professional skills, which is an important stage in the integration of people with intellectual disabilities and those in need of special assistance into society. During the study, effective models of social cooperation between special educational institutions, families and industrial enterprises were analyzed. Also, the role of state and non-state organizations in increasing the competitiveness of people with special needs in the labor market and preparing them for independent life was scientifically substantiated. The author put forward practical proposals and recommendations aimed at increasing the effectiveness of vocational education.

Keywords: inclusive education, compensation, professional skills, social cooperation, people with intellectual disabilities, correctional pedagogy, social adaptation, labor rehabilitation.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования профессиональных навыков, являющегося важным этапом интеграции в общество людей с интеллектуальными нарушениями и лиц, нуждающихся в специальной помощи. В ходе исследования проанализированы эффективные модели социального сотрудничества между специальными образовательными

учреждениями, семьями и промышленными предприятиями. Также научно обоснована роль государственных и негосударственных организаций в повышении конкурентоспособности людей с особыми потребностями на рынке труда и подготовке их к самостоятельной жизни. Автор выдвинул практические предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности профессионального образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, компенсация, профессиональные навыки, социальное сотрудничество, люди с интеллектуальными нарушениями, коррекционная педагогика, социальная адаптация, трудовая реабилитация.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori maxsus yordamga muhtoj bolalarga ta'lim berish jarayonini tubdan isloh qilishda poydevor vazifasini o'tadi. Ushbu normativ hujjat quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi: Umumta'lim maktablarida integratsiyalashgan ta'limni yo'lga qo'yish yo'lga qo'yildi. Shu jumladan, inklyuziv ta'limning strategik maqsadlari va dolzarb vazifalari belgilandi, umumta'lim muassasalari negizida inklyuziv muhitni hamda boshlang'ich bosqichdagi tayanch korreksion guruhlarni tashkil etishning huquqiy mexanizmlari ishlab chiqildi, o'quvchilarni ushbu maxsus sinflarga qabul qilish va hujjatlashtirishning aniq tartib-taomillari o'rnatildi, ta'lim sifatini doimiy monitoring qilish va o'quv jarayonini boshqarishning zamonaviy metodlari joriy etildi.

Ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga solish ishlari bosqichli tarzda amalga oshirilmoqda, jismoniy yoki intellektual rivojlanishida cheklovlar mavjud bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarni boshqarish va ularda davolash-sog'lomlashtirish ishlarini muvofiqlashtirish tartibi takomillashtirildi, bolalarning bilim olish imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularni jamiyatning faol a'zosiga aylantirish va ijtimoiy muhitga moslashtirishning pedagogik dastaklari belgilandi, o'quvchilarning ehtiyojiga qarab bir turdagi maxsus muassasadan boshqasiga yoki inklyuziv ta'lim shakliga o'tkazishning shaffof tizimi yaratildi.

Maxsus sharoitlar va korreksion yondashuv: Bolalarning psixofizik rivojlanishidagi keskin og'ishlar ularning kelajakda o'z salohiyatini namoyon etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, ularga individual yondashuv va maxsus muhit zarur. Bu jarayon nafaqat ixtisoslashtirilgan markazlarda, balki sog'lom tengdoshlari davrasida ham amalga oshirilishi, zarurat tug'ilganda esa moslashtirilgan darslik va metodikalar bilan ta'minlanishi shart. Samarali ta'lim tizimi bolaning kuchli taraflarini rag'batlantirish va kamchiliklarini korreksiyalashga yo'naltirilishi lozim. Bu o'rinda quyidagi to'rt komponent hal qiluvchi rol o'ynaydi:

- **kompensatsiya:** yo'qotilgan funksiyalar o'rnini texnik vositalar bilan to'ldirish;
- **modifikatsiya:** o'quv materiallarini bolaning darajasiga moslab o'zgartirish;
- **reabilitatsiya:** salomatlikni tiklash va quvvatlash;
- **adaptatsiya:** tashqi muhit va o'quv sharoitlarini moslashtirish.

Masalan, tayanch-harakat a'zolari shikastlangan bolalar uchun harakatlanish vositalari, eshitishdan nuqsoni borlar uchun maxsus qurilmalar va kundalik hayotni yengillashtiruvchi uskunalar bilan ta'minlash — insoniy haq-huquqlarni ta'minlashning amaliy ko'rinishidir.

Inklyuziv ta'lim — bu shunchaki o'qitish usuli emas, balki kamsitishlarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy harakatdir. Agar o'quv jarayoni to'g'ri tashkil etilsa, bundan nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki butun sinf jamoasi manfaatdor bo'ladi. Bolalar bir-biri bilan muloqot qilish orqali insoniy xilma-xillikni anglaydilar, bu esa jamiyatda bag'rikenglikni oshiradi. Ta'kidlash joizki, biron-bir kichik nuqson (masalan, qisman eshitmaslik) bolaning umumiy rivojlanishiga to'sqinlik qilmasa, uni alohida yordamga muhtojlar toifasiga kiritish shart emas. Asosiy e'tibor jiddiy tibbiy-pedagogik muammolarga qaratilishi kerak. Bugungi kunda mamlakatimizda profilaktika va zamonaviy tibbiyot yutuqlari sharofati bilan turli yuqumli kasalliklar natijasida kelib chiqadigan nogironlik holatlari sezilarli darajada kamaydi. Bu esa ta'lim tizimida asosiy e'tiborni sifatli o'qitish va ijtimoiy integratsiyaga qaratish imkonini bermoqda.

Navqiron avlod vakillarining har tomonlama yetuk bo'lib shakllanishi uchun yaratilayotgan keng ko'lamli imtiyozlar ularning porloq kelajagi uchun tamaltoshi vazifasini o'tamoqda. Xususan, jismoniy imkoniyatlari cheklanganligiga qaramasdan, xalqaro Vatan sharafini munosib himoya qilayotgan va davlatimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarayotgan irodali yoshlarimizning g'alabalari har birimizda cheksiz iftixor uyg'otadi. Aksincha, salomatligi va barcha sharoitlari joyida bo'la turib, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalana olmayotgan ayrim tengdoshlarining loqaydligi kishini chuqur mulohazaga chorlaydi. Mamlakatimizning eng chekka hududlarida istiqomat qiluvchi, sog'lig'ida muammosi bor o'g'il-qizlar ham doimiy e'tibor markazidadir. Ularning sifatli ta'lim olishi hamda zamonaviy hunar egallashi uchun teng huquqli sharoitlar yaratilgan bo'lib, har bir yoshning taqdiri bevosita davlat himoyasiga olingan.

Alohida ehtiyojli yoshlar bilan muloqot qiluvchi ijtimoiy pedagogdan yuksak darajadagi kasbiy tayyorgarlik va chuqur kompetensiyalar talab etiladi. Mutaxassisning asosiy maqsadi — bolalar qalbida paydo bo'lgan o'ziga nisbatan ishonchsizlik va tushkunlik kabi salbiy hislarni bartaraf etishdan iboratdir. Pedagog quyidagi vazifalarni amalga oshirishi shart: shaxsdagi yashirin iste'dodlarni kashf etish

orqali uning ruhiy holatini sog'lomlashtirish; har bir insonning jamiyat uchun naqadar qadrli ekanini amalda isbotlash; o'zaro hamkorlik asosida ularning ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlash.

Bugungi kunda mazkur toifadagi yoshlar uchun misli ko'rilmagan imtiyozlar tizimi joriy etildi. Davlat tomonidan ehtiyojmand qatlam vakillariga shaxsiy turar-joylar ajratilishi hamda ularning jismoniy holatiga mos keluvchi bandlik masalalari hal etilishi tizimli yo'lga qo'yilgan. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan iqtidorli talabalarning stipendiya miqdori 50% oshirildi. Ushbu toifadagi shaxslarga pensiya to'lovlarini amalga oshirish muddati 23 yoshgacha uzaytirildi. Shuningdek, o'quv adabiyotlari va zarur manbalarni xarid qilishlari uchun har yili bazaviy hisob-kitob miqdoriga mutanosib ravishda (1,2 million so'm) moddiy yordam ko'rsatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, har bir bolaning, u qayerda yashashi va qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'i nazar, davlat himoyasida bo'lishi va munosib ta'lim olishi inklyuziv jamiyatning bosh tamoyilidir. Kelajakda ushbu toifadagi yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlarga o'rgatish, ularning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini oshirish va ijtimoiy hamkorlik modellarini yanada takomillashtirish nafaqat davlatning ustuvor vazifasi, balki har birimizning insoniy va muqaddas burchimiz bo'lib qol

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021 yildagi 638-son
2. M.U.Xamidova "Maxsus pedagogika", NIF MSH, Toshkent 2020
3. Mukimova, D. I. (2022, October). IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAKTABLARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH. In INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY (Vol. 1, No. 4, pp. 159-161).
4. Aripov, Z., & Oripova, O. (2023). ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR E'TIBOR MARKAZIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 135-138.
5. <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-moderneducation/article/view/24652>